



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Iskandarova Munisa Bahodir qizi

Navoiy viloyati, Navbahor tumani

10-maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonining nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritiladi. Bolalarda tafakkurni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, STEAM yondashuvi va axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy va milliy pedagogik tajribalar solishtirib o'rganilgan hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatli topshiriqlar va interaktiv mashg'ulotlardan muntazam foydalanish tarbiyalanuvchilarda mantiqiy fikrlash jarayonlarini kuchaytirib, tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, innovatsion metodlar, interfaol o'yinlar, STEAM, axborot texnologiyalari, pedagogik jarayon.

Abstract: The article examines the theoretical foundations and practical significance of teaching logical and critical thinking to preschool children. The role of modern pedagogical technologies, interactive methods, the STEAM approach, and information and communication tools in the development of independent decision-making and problem-solving skills in children is analyzed. The study compares foreign and national pedagogical practices and provides methodological recommendations for preschool educators. The results show that the regular use of didactic games, problem-based tasks, and interactive lessons significantly enhances logical reasoning processes and fosters critical thinking among preschoolers.

Key words: preschool education, logical thinking, critical thinking, innovative methods, interactive games, STEAM, information technologies, pedagogical process.

Аннотация: В статье освещаются теоретические основы и практическая значимость обучения воспитанников дошкольных образовательных организаций логическому и критическому мышлению. Проанализирована роль современных педагогических технологий, интерактивных методов, STEAM-подхода и информационно-коммуникационных средств в развитии у детей навыков самостоятельного принятия решений и решения проблемных ситуаций. В исследовании сопоставлены зарубежный и национальный педагогический опыт, а также разработаны методические рекомендации для воспитателей дошкольных организаций. Результаты показывают, что регулярное использование дидактических игр, проблемных заданий и интерактивных занятий усиливает процессы логического мышления у воспитанников и способствует развитию критического подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, логическое мышление, критическое мышление, инновационные методы, интерактивные игры, STEAM, информационные технологии, педагогический процесс.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim bosqichida tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka o'rgatish zaruriyatini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda davlat ta'lim standartlarida ham bolalarni mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Kichik yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlari tez shakllanadi. Shu bois tarbiyachining vazifasi – bolaning faolligini rag'batlantirish, fikrni erkin ifoda etishga imkon berish va turli vaziyatlarda yechim topishga yo'naltirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bola tez eslab qoladi, tez ta'sirchan bo'ladi, ammo uning tafakkurini rivojlantirish uchun maxsus metodlar talab etiladi. Faqat bilim berish emas, balki bolani savol berishga, javob izlashga, turli yechimlarni solishtirishga undash tarbiyachining asosiy vazifasidir.



So'nggi yillarda xalqaro tajribalar ham shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Masalan, Finlyandiya, Singapur va Yaponiya kabi davlatlarda ta'lim tizimida "bolani fikrlashga o'rgatish" konsepsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. U yerda maktabgacha yoshdagi bolalar turli o'yinlar, muammoli topshiriqlar, tajribalar va guruhii loyihalar orqali mustaqil fikrlashga yo'naltiriladi.

Shuningdek, UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar ham erta yoshda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni barqaror ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'kidlamogda. Chunki bugungi globallashuv davrida yosh avloddan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balki ulardan to'g'ri foydalanish, yangi g'oyalar yaratish va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlari talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy tafakkurga o'rgatish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi bolalarning tafakkur shakllanishida o'yin va muloqotning o'zni katta ekanini ko'rsatadi. Unga ko'ra, 2-7 yosh oraliqida bola predmet va hodisalarni ramziy belgilash orqali o'rganadi, ammo mantiqiy operatsiyalarni bajara olmaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin asosiy o'rin tutadi.

L.S. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida bolalar kattalar va tengdoshlari yordamida qiyin vazifalarni bajarishga qodirligini ta'kidlaydi. Bu fikr tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun muhim metodik asosdir. J. Dewey esa "tajribaga asoslangan ta'lim"ni ilgari surib, bolani hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilishga jalb qilish zarurligini ko'rsatgan.

A. Maslow va K. Rojersning gumanistik psixologiyasi bolaning hissiy-irodaviy sohasi (motivatsiya, ishtiyoq, o'ziga ishonch) uning kognitiv faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitining ahamiyatini ko'rsatadi. K. Chaddok va R. Ennis kabi tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashning aniq tarkibiy qismlari (argumentlarni tahlil qilish, xatolarni topish, dalillarni baholash) va ularni qanday o'rgatish kerakligi haqida batafsil metodologiyalar ishlab chiqdilar. Mahalliy tadqiqotlarda (G'oziyev E.G., Yo'ldoshev J.G. va boshqalar) bolalarda tafakkurni rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar, topishmoqlar va muammoli topshiriqlardan foydalanish samarali ekani ta'kidlanadi. Ularning ishlari maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, milliy qadriyatlar va zamonaviy metodikalarni uyg'unlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishda bir nechta metodlardan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali bolalarning mashg'ulotlardagi faol ishtiroki tahlil qilindi. Eksperiment usuli yordamida ikki guruhda taqqoslovchi tajriba o'tkazilib, ulardan birida zamonaviy metodlar, ikkinchisida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi. Shuningdek, suhbat va intervyu orqali tarbiyachilar hamda ota-onalar fikri o'rganildi. Tahliliy taqqoslash usuli yordamida xorijiy va mahalliy tajribalar solishtirildi. Natijalarning ilmiy ishonchligini ta'minlash maqsadida statistik tahlil o'tkazilib, olingan ko'rsatkichlar foizlarda qayd etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: zamonaviy metodlardan foydalanilgan guruh bolalari mantiqiy topshiriqlarni 82 % muvaffaqiyat bilan bajargan bo'lsa, an'anaviy usullardan foydalangan guruhda bu ko'rsatkich 58 %ni tashkil etdi. Didaktik o'yinlarning samarasi – "Ortiqcha predmetni top", "Tartib bilan joylashtir", "Topishmoqlar" kabi o'yinlar bolalarda sabab-oqibat bog'lanishini tushunishga, mantiqiy ketma-ketlikni aniqlash ko'nikmalarini shakllanishiga yordam berdi. Interfaol metodlarning ta'siri – "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert" texnologiyalari yordamida bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rgandilar, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

STEAM yondashuvi – LEGO va qurilish konstrukturi yordamida muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bolalarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash shakllandi. AKT vositalarining qo'llanilishi – multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning tasavvurini kengaytirdi, muloqotchanlikni oshirdi. Ota-onalar bilan hamkorlik – uyda berilgan ijodiy topshiriqlar bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini mustahkamladi. Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish bolaning tafakkurini faollashtiradi. Biroq ayrim muammolar ham mavjud: tarbiyachilarning hammasi ham innovatsion metodlarni chuqur bilmaydi; AKT vositalarining yetarli darajada mavjud emasligi; ota-onalarning farzand tarbi-

yasida tanqidiy fikrlashga yetarli e'tibor qaratmasligi. Shu sababli, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: tarbiyachilar uchun muntazam metodik seminarlar tashkil etish; ta'lim tashkilotlarini texnik jihozlar bilan ta'minlash; ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish; ta'lim dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yangilash.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning kelgusidagi muvaffaqiyatli ta'lim jarayoni uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Zamonaviy metod va texnologiyalar – didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, STEAM yondashuvi va AKT vositalaridan foydalanish bolalarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammoni hal qilish qobiliyatini shakllantirishda samarali ekanini tadqiqot tasdiqladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligida bolalarning mantiqiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019 yildagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2010. – 459 b.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – Routledge, 2001.
5. Yo'ldoshev J.G'. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. Pulatova M.R. Innovative Methods in Preschool Education. – International Journal of Education Methods, 2019.
7. Barduhn S. (2014). Developing Cross-cultural Awareness in the Monolingual Classroom. Teaching English, British Council.
8. Kodirov M., Pulatov Sh., Madalimov T. Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. – International Journal of Multidisciplinary Research, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.